

LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'ZBEKISTONNING
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Xolmirzayev Ismoil Ashir o'g'li

Talaba.

Yuldoshev Anvar G'ayrat o'g'li

Talaba.

Ahmadaliyev Asrorjon Baxtiyorjon o'g'li

Talaba.

Beknazarov Temurbek Hasan o'g'li

Talaba.

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19052648>

Annotatsiya. Ushbu manbalar to'plami global va o'rtacha rivojlanayotgan bozorlarda logistika samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqot va hisobotlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Agility Logistics va boshqa olimlar logistika ko'rsatkichlari va reytinglarini tahlil qilishda turli metodologiyalardan foydalanishgan. Maqsad – davlatlar va kompaniyalar logistika infratuzilmasini takomillashtirishda qo'llaniladigan eng samarali usullarni aniqlash. Shuningdek, manbalarda O'zbekistonning YeAEO va JTTga integratsiyasi nuqtai nazaridan logistika hamda savdo jarayonlarini baholash va xorijiy tajribalarni o'rganish masalalari ham yoritilgan. Tadqiqotlar logistika samaradorligini baholashda ob'ektivlik, xalqaro standartlarga muvofiqlik va integratsiya imkoniyatlarini hisobga olishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: logistika samaradorligi, reyting va indeksi, halqaro standartlar, o'rtacha rivojlanayotgan bozorlar, integratsiya (YeAEO, JTT), savdo logistikasi, jahon banki metodologiyasi, ob'ektiv baholash.

Аннотация. Данный сборник источников включает исследования и отчёты, направленные на оценку эффективности логистики в глобальных и развивающихся рынках.

Международные организации, включая Всемирный банк, Agility Logistics и других исследователей, использовали различные методологии для анализа показателей и рейтингов логистики. Цель состоит в том, чтобы определить наиболее эффективные подходы для совершенствования логистической инфраструктуры государств и компаний.

Кроме того, источники освещают вопросы оценки логистики и торговых процессов с точки зрения интеграции Узбекистана в ЕАЭС и ВТО, а также изучения зарубежного опыта. Исследования демонстрируют важность объективности при оценке эффективности логистики, соответствия международным стандартам и учёта возможностей интеграции.

Ключевые слова: эффективность логистики, рейтинг и индекс, международные стандарты, развивающиеся рынки, интеграция (ЕАЭС, ВТО), торговая логистика, методология Всемирного банка, объективная оценка

Abstract. This collection of sources includes research and reports aimed at evaluating logistics performance in global and emerging markets. International organizations, including the World Bank, Agility Logistics, and other researchers, have employed various methodologies to

analyze logistics indicators and rankings. The goal is to identify the most effective approaches for improving the logistics infrastructure of countries and companies. Additionally, the sources address the evaluation of logistics and trade processes from the perspective of Uzbekistan's integration into the EAEU and WTO, as well as the study of foreign experiences. The studies highlight the importance of objectivity in assessing logistics performance, compliance with international standards, and consideration of integration opportunities.

Keywords: *logistics performance, ranking and index, international standards, emerging markets, integration (EAEU, WTO), trade logistics, World Bank methodology, objective assessment.*

Kirish. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligi ko'p jihatdan transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati cheklangan davlatlar uchun samarali transport va logistika tizimini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston, mintaqaviy va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish maqsadida logistika infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mintaqada xalqaro dengiz aloqalariga chiqish imkoniyatining mavjud emasligi, eksport tovarlari qiymatida transport xarajatlarining yuqori ulushi hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushining cheklanganligi kabi omillar transport-logistika tizimini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu bois mamlakatimizda transport koridorlarini rivojlantirish, logistika markazlarini tashkil etish, shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus industrial zonalar faoliyatini kengaytirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa mintaqaviy savdo hajmini oshirish va transport xizmatlariga bo'lgan talabni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida turgan muhim strategik vazifalardan biri sifatida mintaqaning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, BMT shafeligida transport-kommunikatsiya sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy markaz tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, logistika tizimlarini samarali tashkil etish ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Yevropa logistika assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, logistik yondashuvlarni qo'llash tovar ishlab chiqarish vaqtini taxminan 25 foizga qisqartirish, ishlab chiqarish xarajatlarini 30 foizgacha kamaytirish va zaxiralar hajmini 30–70 foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Shu bois mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili. Jahon ilmiy adabiyotlarida logistika infratuzilmasi va uning iqtisodiy hamda ekologik samaradorlikka ta'siri keng o'rganilgan.

Ayniqsa, logistika tizimining samarali tashkil etilishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Xususan, J. Lyu va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda 2007–2016 yillar davomida Osiyoning 42 mamlakati ma'lumotlari asosida logistika samaradorligi va atrof-muhit holati

oʻrtasidagi bogʻliqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimning umumlashtirilgan momentlar usuliga asoslangan regressiya modeli qoʻllanilib, Osiyo mamlakatlari hamda uning bir nechta submintaqalari boʻyicha tahlil amalga oshirilgan. Tahlil natijalari logistika koʻrsatkichlari va ekologik holat oʻrtasida sezilarli bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatadi.

Xususan, Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index – LPI) koʻrsatkichlarining yaxshilanishi CO₂ chiqindilarining kamayishiga maʼlum darajada ijobiy taʼsir koʻrsatishi aniqlangan. Biroq logistika operatsiyalarining tezkorligi va oʻz vaqtida bajarilishi ayrim holatlarda CO₂ chiqindilarining ortishiga ham olib kelishi mumkinligi taʼkidlangan. Shuningdek, LPI tarkibiga kiruvchi infratuzilma sifati, bojxona samaradorligi, logistika xizmatlarining sifati va mutaxassislar malakasi kabi koʻrsatkichlar ham turli mintaqalarda atrof-muhitga turlicha taʼsir koʻrsatishi qayd etilgan. Mualliflar tadqiqot natijalariga asoslanib, Osiyo mamlakatlarida ekologik barqarorlikni taʼminlash hamda “yashil logistika” tamoyillarini rivojlantirish zarurligini taʼkidlaydilar.

Shuningdek, turk tadqiqotchilari Gyoher va boshqalar tomonidan mamlakatlar logistika siyosati va ularning xalqaro logistika koʻrsatkichlari oʻrtasidagi bogʻliqlik masalasi tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotda mamlakatlarning LPI ballari hamda boshqa iqtisodiy-statistik koʻrsatkichlar oʻrtasidagi munosabatlar tahlil qilingan. Mualliflarning fikricha, logistika koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan mamlakatlar rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun oʻziga xos etalon vazifasini bajarishi mumkin. Tadqiqotning asosiy maqsadi muayyan mamlakatlarda logistika samaradorligini oshirish va LPI koʻrsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan samarali logistika siyosatini ishlab chiqish uchun uslubiy asos yaratishdan iborat boʻlgan. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qoʻllanilib, ikki asosiy bosqichda tahlil amalga oshirilgan: birinchi bosqichda mamlakatlarning logistika strategiyalari va ularning LPI koʻrsatkichlariga taʼsiri oʻrganilgan, ikkinchi bosqichda esa muayyan mamlakatlar uchun logistika koʻrsatkichlarini yaxshilash boʻyicha amaliy siyosiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mualliflar ushbu yondashuvni Turkiya misolida qoʻllab, mamlakat logistika siyosatini takomillashtirishga qaratilgan strategik takliflarni ilgari surganlar.

Ushbu tadqiqotlar natijalari logistika infratuzilmasini rivojlantirish mamlakatlarning xalqaro savdodagi ishtirokini kengaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda global raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim omil ekanligini koʻrsatadi. Shu jihatdan Oʻzbekistonda ham zamonaviy transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro logistika koʻrsatkichlarini yaxshilash va mintaqaviy transport koridorlarida faol ishtirok etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologiyasi Oʻzbekistonda logistika infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini oʻrganish, xalqaro reyting va indekslar asosida mamlakatning logistika sohasidagi mavqeini tahlil qilish hamda xalqaro tajribalarni umumlashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida logistika sohasidagi xalqaro koʻrsatkichlar, xususan, mamlakatlarning transport-logistika samaradorligini baholovchi reytinglar tahlil qilinib, ularning Oʻzbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati oʻrganildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida logistika infratuzilmasini rivojlantirishga oid nazariy va amaliy manbalar, milliy qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari, ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, jahon ilmiy maktablari tomonidan ishlab chiqilgan strategik boshqaruv va logistika tizimlarini rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar ham tahlil qilindi. Tadqiqot davomida nazariya va amaliyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, taqqoslash, analogiya, tizimli yondashuv, statistik tahlil hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Ushbu usullar orqali logistika infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari, muammolari va ularni bartaraf etish yo'nalishlari aniqlandi.

Jahon amaliyotida yetakchi xalqaro tashkilotlar va tadqiqot markazlari tomonidan muntazam ravishda e'lon qilib boriladigan xalqaro reytinglar mamlakatlarning turli sohalardagi rivojlanish darajasini baholash, ularni o'zaro taqqoslash hamda mavjud muammolar va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim tahliliy vosita hisoblanadi.

Bunday reytinglar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini belgilash bilan birga, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, xalqaro amaliyotda mamlakatlarning iqtisodiy va logistika salohiyatini baholashda Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index – GCI), Umumjahon raqobatbardoshlik reytingi (World Competitiveness Ranking – WCR), Global savdoni rag'batlantirish indeksi (Enabling Trade Index – ETI) hamda Biznes yuritish indeksi (Doing Business) kabi muhim tahlil vositalari qo'llaniladi. Ushbu reytinglar mamlakatlardagi infratuzilma holati, institutsional muhit, savdo erkinligi va logistika tizimining samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Logistika sohasining investitsion jozibadorligini baholash maqsadida 2010 yilda Buyuk Britaniyaning Transport Intelligence tadqiqot instituti tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Emerging Market Logistics Index (EMLI) ishlab chiqilgan.

Ushbu indeks logistika bozorining xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlik darajasini baholashga xizmat qiladi.

Indeksning umumiy ko'rsatkichi uchta asosiy omilga asoslanib hisoblanadi:

✚ *logistika bozorining hajmi va rivojlanish dinamikasi;*

✚ *bozor muhitining qulayligi;*

✚ *transport-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi.*

EMLI reytingi rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega 50 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanadi. Tahlillarga ko'ra, logistika sohasiga investitsiya kiritish uchun eng jozibador mamlakatlar qatoriga Xitoy, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya, Malayziya va Saudiya Arabistoni kiradi. Ushbu mamlakatlar so'nggi yillarda mazkur reytingda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. MDH davlatlari orasida esa faqat Rossiya, Qozog'iston va Ukraina ushbu reytingda qayd etilgan bo'lib, bu holat mintqa mamlakatlari uchun logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Logistika sohasidagi rivojlanish darajasini baholovchi eng muhim xalqaro reytinglardan biri bu Jahon banki tomonidan e'lon qilib boriladigan Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index – LPI) hisoblanadi.

Ushbu indeks mamlakatlarning savdo logistikasi sohasidagi imkoniyatlari va mavjud muammolarini aniqlash, shuningdek, ularning logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

LPI reytingi asosan global ekspeditorlar, logistika operatorlari va xalqaro yuk tashish sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovlar asosida shakllantiriladi.

Ushbu soʻrov natijalari mamlakatlarda logistika zanjiri samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari bilan toʻldiriladi. Shu orqali mamlakatlardagi logistika muhiti, savdo jarayonlari va transport xizmatlarining samaradorligi kompleks baholanadi.

Taʼkidlash joizki, mazkur reyting Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholovchi muhim xalqaro indekslardan biri sifatida belgilangan. Bu esa mamlakatda transport-logistika sohasini rivojlantirish va xalqaro reytinglardagi oʻrnini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini koʻrsatadi.

Logistika samaradorligi indeksi bir nechta asosiy koʻrsatkichlar asosida shakllanadi.

Jumladan, bojxona rasmiylashtiruvchi samaradorligi, transport va logistika infratuzilmasi sifati, xalqaro yuk tashish xizmatlarining qulayligi, logistika xizmatlari sifati va mutaxassislar malakasi, yuklarni kuzatish imkoniyatlari hamda yuklarni oʻz vaqtida yetkazib berish darajasi kabi omillar mazkur indeksning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Jahon banki 2007 yildan buyon har ikki yilda bir marta ushbu reytingni eʼlon qilib kelmoqda. 2023 yilgi LPI reytingi natijalariga koʻra, logistika infratuzilmasi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga Singapur, Finlyandiya, Daniya, Germaniya, Niderlandiya, Shvesiya, Avstriya, Belgiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Yaponiya kiradi. Ushbu mamlakatlarda zamonaviy transport infratuzilmasi, samarali bojxona tizimi va yuqori sifatli logistika xizmatlari mavjud boʻlib, bu ularning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirmoqda.

1-jadval

2007-2023 yillar davomida logistika koʻrsatkichlari indeksi
boʻyicha yetakchi mamlakatlar

Мамлакат	LPI рейтингда мамлакатнинг ўрни						
	2007	2010	2012	2014	2016	2018	2023
Сингапур	4,19 (1)	4,09 (2)	4,13 (1)	4,00 (5)	4,14 (5)	4,00 (7)	4,3 (1)
Финляндия	-	-	4,05 (3)	-	-	3,97 (10)	4,2 (2)
Дания	-	-	4,02 (6)	-	-	3,99 (8)	4,1 (3)
Германия	4,10 (3)	4,11 (1)	4,03 (4)	4,12 (1)	4,23 (1)	4,20 (1)	4,1 (3)
Нидерландия	4,18 (2)	4,07 (4)	4,02 (5)	4,05 (2)	4,19 (4)	4,02 (6)	4,1 (3)
Швейцария	4,08 (4)	4,08 (3)	-	3,96 (6)	4,20 (3)	4,05 (2)	4,1 (3)
Австрия	4,06 (5)	-	-	-	4,10 (7)	4,03 (4)	4,0 (7)
Белгия	-	3,94 (9)	3,98 (7)	4,04 (3)	4,11 (6)	4,04 (3)	4,0 (7)
Гонконг (ХХР)	4,00 (8)	-	4,12 (2)	-	4,07 (9)	-	4,0 (7)
Япония	4,02 (6)	3,96 (7)	3,93 (8)	3,91 (10)	-	4,03 (5)	3,9 (13)

Oʻzbekistonning xalqaro logistika reytinglaridagi oʻrni va tahlil. MDH mamlakatlari orasida 2023 yilda Qozogʻiston xalqaro logistika reytinglarida oʻz mavqeini sezilarli darajada yaxshilab, yetakchi oʻrinni egalladi. Rossiya ham 2023 yilda oʻz reytingini 99-oʻrindan 88-oʻringa koʻtardi (2-jadval). Shu yilda Armaniston, Belorusiya, Oʻzbekiston va Moldova ham reytingda koʻtarilib, musbat tendensiya koʻrsatdi. Aksincha, Qirgʻiziston oʻz pozitsiyasini pasaytirdi. Oʻzbekistonning barcha 6 ta LPI sub-indekslari boʻyicha reyting davomiy ravishda nisbatan yuqori koʻrsatkichlarga ega boʻlsa-da, 2018–2023 yillarda “Savdo va transport infratuzilmasi

sifati” kichik indeksi bo’yicha pasayish kuzatilmoqda. Bu mamlakat logistika tizimida ayrim sohalarda yangilash va takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi (3-jadval).

3-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, O’zbekistonning LPI ko’rsatkichi 2010 yilda 68-o’rinda bo’lgan bo’lsa, 2014 yilda 129-o’ringa tushgan, bu esa reytingdagi tafovutning kattaligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, reytingning butun vaqt davomida “Yuk yetkazib berish muddatlariga rioya qilish” va “Tovarlar harakatini kuzatish” sub-indekslari bo’yicha yuqori ko’rsatkichlar saqlangan. Bundan ko’rinib turibdiki, O’zbekistonda logistika jarayonlarining ayrim asosiy komponentlari samarali tashkil qilingan. Biroq, qolgan sub-indekslar, xususan, “Bojxona rasmiylashtiruv jarayonining samaradorligi” ko’rsatkichi nisbatan past bo’lib, 2023 yilda 2,10 ballni tashkil etadi va bu o’tgan davrga nisbatan 0,22 ball pastdir. Shu bilan birga, “Yuklarning harakatini kuzatish” sub-indeksi bo’yicha nisbatan yuqori koeffitsient (2,8) kuzatilmoqda, bu logistika jarayonlaridagi samaradorlikning ayrim sohalarda yaxshi darajada ekanini ko’rsatadi.

Logistika samaradorligi indeksi reytingini hisoblashdagi qizi qirishi shundaki, so’rovnoma natijalari raqamli shaklda va logarifm (ln) asosida kodlanadi. Masalan, oraliq tanlash bilan berilgan javoblar (masalan, 50–100) o’rtacha logarifm ko’rsatkichi (ln75) sifatida kodlanadi. Bu usul katta ma’lumotlar bazasini qayta ishlashda qo’shimcha xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan, O’zbekistonning LPI natijalari tahlil qilinadigan bo’lsa, mamlakatda logistika infratuzilmasini takomillashtirish va savdo hamda transport sohasidagi sub-indekslarning kamchiliklarini bartaraf etish uchun aniq yo’nalishlar mavjud ekani aniqlanadi. Bu esa xalqaro reytinglarda O’zbekistonning raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun asosiy ilmiy va amaliy zamin yaratadi.

2-jadval

MDH davlatlarining 2007 – 2023 yillarda LPI indeksi bo’yicha o’rni

Мамлакатлар	2007		2010		2012		2014		2016		2018		2023	
	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни	LPI indeksi	Ўрни
Қозоғистон	2,12	133	2,83	62	2,69	86	2,7	88	2,75	77	2,81	71	2,7	79
Россия	2,37	99	2,61	94	2,58	95	2,69	90	2,57	99	2,76	75	2,6	88
Армения	2,14	131	2,52	111	2,56	100	2,67	92	2,21	141	2,61	92	2,5	97
Ўзбекистон	2,16	129	2,79	68	2,46	117	2,39	129	2,4	118	2,58	99	2,6	88
Белорус	2,53	74	-	-	2,61	91	2,64	99	2,4	120	2,57	103	2,7	79
Қирғизистон	2,35	103	2,62	91	2,35	130	2,21	149	2,16	146	2,55	108	2,3	123
Молдова	2,31	106	2,57	104	2,33	132	2,65	94	2,61	93	2,46	116	2,5	97
Туркменистон	-	-	2,49	114	-	-	2,30	140	2,21	140	2,41	126	-	-

Integral LPI indeksini tahlil va uning cheklovlari. Integral LPI (Logistics Performance Index) indeksini shakllantirish metodologiyasi tahlil qilinganda aniqlanishicha, hisob-kitob jarayonida mamlakat logistikasining holatini belgilaydigan asosiy omillar e'tiborga olinadi va umumiy yondashuv konstruktiv hamda nazariy jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Bu esa indeks natijalari asosida mamlakatning logistika tizimidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Biroq, LPI indeksini hisoblashda ayrim muhim kontekstual omillar inobatga olinmaydi. Xususan:

- ✚ *mamlakat hududining kattaligi va geografik tarkibi,*
- ✚ *yo'l va transport kommunikatsiyalari uzunligi va sifati,*
- ✚ *aholi soni va aholi zichligi,*
- ✚ *dengizga chiqish imkoniyati yoki uning yo'qligi,*
- ✚ *shuningdek, ayrim iqtisodiy va geosiyosiy xususiyatlar*
- ✚ *kabilar indeks hisob-kitobida qo'shimcha o'zgaruvchi sifatida e'tiborga olinmaydi.*

Shu bilan birga, bu cheklovlar LPIning mamlakat logistikasining umumiy samaradorligini baholashda samarali vosita bo'lib xizmat qilish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, ammo natijalarni tahlil qilishda va davlat siyosatini shakllantirishda ushbu kontekstual faktorlar ham hisobga olinishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro logistika reytinglaridagi o'rnini yaxshilash va infratuzilmani takomillashtirishda qo'shimcha chora-tadbirlar belgilash uchun muhim ilmiy asosni tashkil etadi.

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasini 2007 – 2023 yillarda LPI indeksi
bo'yicha reytingi**

Кўрсаткичлар	2007	2010	2012	2014	2016	2018	2023
Рейтингда ўрни	129	68	117	129	118	99	88
LPIning miqdori	2,16	2,79	2,46	2,39	2,4	2,58	2,6
Божхона жараёнининг расмиятлаштирувининг самарадорлиги	1,94	2,20	2,25	1,80	2,32	2,10	2,6
Савдо ва транспорт инфраструктурасининг сифати	2,00	2,54	2,25	2,01	2,45	2,57	2,4
Халқаро савдога товарларни жўнатишни соддалиги	2,07	2,79	2,38	2,23	2,36	2,42	2,6
Логистик хизматларни сифати ва касбий маҳоратлилиги	2,15	2,5	2,39	2,37	2,39	2,59	2,6
Юklarнинг ҳаракатини кузатиш	2,08	2,96	2,53	2,87	2,05	2,71	2,8
Юklarни етказиб бериш муҳлатига амал қилиш	2,73	3,72	2,96	3,08	2,83	3,09	-

LPI indeksining chegaralari va O'zbekiston logistika tizimidagi muammolar.

Umumjahon banki tomonidan ishlab chiqilgan LPI (Logistics Performance Index) metodologiyasining tahlili 2007–2012 yillar davrida uning natijalariga ishonch bilan qarashda ayrim shubhalarni yuzaga keltirdi. Zero, taklif etilayotgan metodologiya logistika samaradorligini baholashda ilmiy jihatdan to'liq asoslanmagan bo'lib, asosan xalqaro (transmilliy) logistika

kompaniyalari ma'lumotlariga tayanadi va mahalliy logistika xizmatlari iste'molchilari fikrini o'z ichiga olmaydi. Shu bois, ayrim mamlakatlar reytingda bir necha o'nlab pozitsiyalarga ko'tarilishi yoki pasayishi mumkin.

Umumjahon banki tadqiqotchilari ham metodologiyaning xususiy xususiyatlarini e'tirof etadilar: LPI hisob-kitobi mamlakatlarning savdo operatsiyalari bilan qanday bog'liqligi xususiy biznes nuqtai nazaridan amalga oshiriladi, shuning uchun alohida mamlakat darajasidagi ichki o'zgarishlar yetkazib berilmaydi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, LPI indeksi logistikaning progressiv va kam taraqqiy etgan mamlakatlarini aniqlash imkonini beradi, ammo yuqori reytingga ega mamlakatlarda barcha logistika ko'rsatkichlarining bir xil yuqori samaradorligini anglatmaydi. Umuman olganda, logistika sohasi ko'p o'lchovli va murakkab ekanligi uchun uni turli mamlakatlarda baholash ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Shu bois, *O'zbekistonning logistika tizimidagi rivojlanishni chuqur tahlil qilishda quyidagi asosiy muammolar va cheklovlar mavjudligini qayd etish mumkin:*

✓ *transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi;*

✓ *transport va ombor infratuzilmasi rivojlanishining past darajasi;*

✓ *3pl va 4pl xizmatlar bozorining nomukammalligi;*

✓ *malakali logistik mutaxassislar sonining kamligi;*

✓ *bojxona va chegara nazoratlari jarayonining samaradorligining pastligi;*

✓ *transport va logistika sohasini huquqiy tartibga solishning zaifligi;*

✓ *logistika ko'rsatkichlarining milliy statistik hisobotlarda yetarli aks etmasligi;*

✓ *milliy logistika tizimining yevrosiyo va trans-osiyo mintaqalariga zaif integratsiyalashuvi;*

✓ *logistika infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiya loyihalari uchun yuqori kredit stavkalari;*

✓ *byurokratik to'siqlar va ma'muriy monealar.*

Yevrosiyo iqtisodiy Ittifoqi (YeAES) doirasida bojxona rasmiylashtiruvi jarayonining samaradorligi va xalqaro transportni tashkil etish qulayligi katta salohiyatga ega. A'zo davlatlar Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyoning yirik iqtisodiy markazlari o'rtasida joylashganligi sababli integratsion birlashmalardan samarali foydalanish, tovar va xizmatlar harakatini soddalashtirish hamda umumiy transport bozorini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy sabablarga ko'ra, yaqin kelajakda O'zbekistonning YeAESga qo'shilishi Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishdan ko'ra maqbulroq bo'lishi mumkin. Chunki JSTda raqobat keskin va qo'llanma qoidalar qat'iy, YeAES esa integratsion hamkorlik va mintaqaviy savdoni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu bois, O'zbekistonning YeAESga qo'shilishi mamlakatning xalqaro savdo va transport integratsiyasiga tayyorgarlik jarayonining muhim qismi sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonning LPI-indeksini oshirish va uni jahon transport-logistika tizimining to'liq a'zosi sifatida kiritish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

✚ *“bojxona rasmiylashtiruvi jarayonining samaradorligi” sub-indeksi*

✚ *O'zbekistonning Bojxona Ittifoqiga kirishi;*

✚ *bojxona stavkalarining nolgacha pasaytirilishi;*

✚ *bojxona tartiblarini soddalashtirish.*

- ✚ “savdo va transport infratuzilmasi sifati” sub-indeksi
- ✚ logistika sohasini tartibga solishni takomillashtirish;
- ✚ logistika sohasining investitsion jozibadorligini oshirish;
- ✚ yangi, qisqa yo‘nalishdan o‘tadigan temir yo‘l liniyalarini qurish.
- ✚ “tovarlarni xalqaro yo‘nalishlarda tashishni qulayligi” sub-indeksi
- ✚ O‘zbekistonning YeOIHga qo‘shilishi;

“MDH qatnashchilari-davlatlar hududlarida yuk avtomobillarini tortish bo‘yicha xalqaro sertifikatni joriy etish to‘g‘risida” (Cho‘lpon-OTA, 2004) va “MDH davlatlari-ishtirokchilari yo‘lini davlatlararo tashish bilan shug‘ullanuvchi transport vositalarining vazni va gabarit o‘lchamlari to‘g‘risida”gi bitimlarni (Minsk, 1999) ratifikatsiya qilish.

4. “Logistika xizmatlari va vakolatlari sifati” sub-indeksi

3PL xizmatlar bozorini jadal shakllantirish va 4PL–5PL konsepsiyasiga o‘tish (logistika sohasida tizim integratorini yaratish);

Logistika sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va uzluksiz malaka oshirish;

Ishonchli statistik hisobot tizimini yaratish.

5. “Yuklarni kuzatish” sub-indeksi

Transport vositalarining GPS navigatsiya tizimi va radiochastotani aniqlash texnologiyasini joriy etish va takomillashtirish.

6. “Yuk yetkazib berish muddatlariga rioya qilish” sub-indeksi

Yuklarning yetkazib berish muddatlariga aniq rioya qilish uchun SAB dasturlaridan foydalanish;

Ta‘minot zanjirini raqamlashtirish.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar tashkiloti bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutqi. Toshkent, 23 sentabr 2020.
2. Скворода Ye.B. Повышение индекса эффективности логистической системы Республики Беларусь. Вестник науки и образования Северо-Запада России, 2016, Т. 2, № 2, С. 1–6.
3. Liu J., Yuan C., Hafeez M., Yuan Q. The relationship between environment and logistics performance: Evidence from Asian countries. Journal of Cleaner Production, 2018, Vol. 204, P. 282–291. ISSN 0959-6526. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.08.310>
4. Göçer A., Özpeynirci Ö., Semiz M. Logistics performance index-driven policy development: An application to Turkey. Transport Policy, 2022, Vol. 124, P. 20–32. ISSN 0967-070X. <https://doi.org/10.1016/j.tranpol.2021.03.007>
5. Sergi B.S., D’Aleo V., Konecka S., Szopik-Depczyńska K., Dembińska I., Ioppolo G. Competitiveness and the Logistics Performance Index: The ANOVA method application for Africa, Asia, and the EU regions. Sustainable Cities and Society, 2021, Vol. 69, 102845. ISSN 2210-6707. <https://doi.org/10.1016/j.scs.2021.102845>

6. Андриянова М.В. Индекс эффективности логистики (LPI) как индикатор логистических проблем в регионе (на примере РФ). *Инновации и инвестиции*, 2018, № 5, С. 288–292.
7. Корчагина Е.В., Барыкин С.Е. Сравнение уровней развития логистики в странах БРИКС и ЕАЭС на основе индекса LPI. *Журнал правовых и экономических исследований*, 2020, № 3, С. 156–159. DOI: 10.26163/GIEF.2020.86.68.024
8. Саматов Р.Г., Ахмедов Д.Т., Юсуфхонов З.Ю. Перспективы развития эффективности логистики. *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.*, 2022, 2(95). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13118> (дата обращения: 15.06.2023).
9. Emerging Market Logistics Index 2013 [Electronic resource]. – Access mode: http://agilitylogistics.com/EN/Documents/Agility_Downloads/2013_Emerging_Markets_Logistics_Index.pdf. – Date of access: 20.02.2013.
10. Agility Logistics Insights: Emerging Markets Logistics Index Survey. [Electronic resource]. – Access mode: <https://logisticsinsights.agility.com/emerging-markets-logistics-index/survey>
11. World Bank – Logistics Performance Index (LPI) About. [Electronic resource]. – Access mode: <https://lpi.worldbank.org/about>
12. Нарзикулов Т.М., Саидхонов С. Об’ективность оценок в приоритете. *Экономическое обозрение*, 2020, № 2, С. 26–33.
13. Connecting to Compete Report 2012: Trade Logistics in the Global Economy. The World Bank.
14. Сергеев В.И., Зинина Д.И. Анализ существующих международных подходов для оценки эффективности логистики. *Научно-аналитический журнал «Логистика и управление цепями поставок»*, 2013, № 2 (55), апрел.
15. Курочкин Д.В. Оценка эффективности логистики по методологии Всемирного банка и ее корректность. *Научно-аналитический журнал «Логистика и управление цепями поставок»*, 2013, № 2 (55), апрел.